

JOURNAL OF NATURAL SCIENCE

№ 2 (7) 2022 <http://natscience.jspi.uz>



<u>ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p>Бош муҳаррир – У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова, PhD, доц.</p> <p>Масъул котиб- Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none">1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.2. Шилова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Белорусия ФА4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор6. Абдурахмонов Э.А.–СамДУ к.ф.д., профессор7. Насимов А.М.–СамДУ к.ф.д., профессор8. Сманова З.А.-ЎзМУ к.ф.д., профессор9. Тошев А.Ю.- ТТЕСИ к.ф.д, доцент10. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д, доц11. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.12. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д., проф13. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц.14. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц15. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.16. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц17. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.18. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)19. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц20. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)21. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц22. Муминова Н- ЖДПИ к.ф.н., доц23. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц24. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD)
<p>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (ҳар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

**O’QUVCHILARIDA EKOLOGIK TA’LIM VA TARBIYA BERISHING
AHAMIYATI**

M.Maratov

Samarqand viloyati Buling’ur tumani XTB qarashli

25-maktab geografiya fani o’qituvchisi

Annatsiya. Maqolada ekologik ta’lim-tarbiya berishning ahamiyati, allomalarning bu boradagi olib borgan ishlari va maktabda ekologiya fanini o’qitish zaruriyat muhokam etilgan.

Tayanch tushunchalar. Ekologik ta’lim, ekologik ong, milliy ekologiya, ma’naviyat, madaniyat, bag’rikenglik, meros, qadriyat.

O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da rejalashtirilgan vazifalarni hayotga tatbiq etish bo’yicha keng miqyosida chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan texnika va texnologiya asrida atrof muhitni avaylab asrash va kelajak avlodga barqaror etkazishda barcha fanlar islohotlariga muhtojlik sezilgani kabi, ekologik fanlarni amaliy, boshqa fanlar bilan birga rivojlantirish davr talabi bo’lib qoldi. Buning isboti sifatida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tarkibidagi O’zbekiston ekologik harakati dasturi maqsad va vazifalarida ham aholining ekologik bilimlarini oshirishga mo’ljallangan bandlari mavjud. Bunda uzluksiz ekologik ta’lim va barqaror rivojlanish uchun ta’lim dasturini shakllantirish, ekologiya sohasidagi mutaxassislarining malakasi va ma’lumotini oshirishning samarali tizimini yaratish Davlat dasturini amalga oshirishda mazkur harakatning faol ishtirok etishi nazarda tutilganidir.

O’zbekistonda ekologik ta’lim hozirda amalda faqatgina oliy o’quv yurtlaridagina joriy qilingan. Umumta’lim maktablarida esa deyarli soatlar ajratilmagan. Ekologik ta’lim – tarbiyaga ajratilgan arzimagina soatlar mobaynida o’quvchilarda ekologik dunyoqarashni shakllantirish va kerakli ko’nikmalarni singdirish ilojsiz. U ham ayrim oliy o’quv yurtlarida boshqa fanlar tarkibiga kiritilgan bo’lib, u aksariyat hollarda tayanch mutaxassislikka ega bo’lmagan o’qituvchilarga yuklatilgan. Agar bugungi talabalar ertaga iqtisodiyot, boshqaruv tashkilotlarida faoliyat olib borishlari va tegishli qarorlar qabul qilishda hal qiluvchi rol’ o’ynashlari nazarda tutilsa, uning samarasi ham oydek ravshan.

SHuni alohida ta’kidlash lozimki, ekologiya fanlarini geografiya ixtisosligi bo’yicha tayanch ma’lumotga ega bo’lgan iloji bo’lsa, tabiiy geografik mutaxassis-pedagoglar o’qitgani maqsadga muvofiqdir. Chunki, hududdagi ekologik muammolar asosan o’sha joydagi tabiiy geografik qonuniyatlarning buzilishi negizida ro’y beradi. Bu o’rinda zabardast olim ND.Nazarovning: **“Geograf hududlar-falsafasi, geograf-hududlar ekologi”** degan hikmatomuz fikrlari o’rinlidir.

Ekologik ong – ekologik tarbiyaning asosi bo’lib, tabiatni **asrab-** avaylashda, unga ongli **munosabatda** bo’lishda, boyliklardan tejamkorona foydalanishda, noxush tabiiy hodisalarning oldini olishda, eng muhimi atrof muhitini doimo toza saqlashda namoyon bo’ladi.

Ekologik tarbiya ham ekologik **ong** singari: “oila-bog’cha-maktab-o’rta maxsus o’quv yurti (yoki oliy o’quv yurti)-korxonamahalla”-bo’g’inida shakllanib boradi. Albatta, bu ketma-ketlik shartlidir, ammo ekologik tarbiyaning shakllanishida oilaning o’rni beqiyosdir.

Oilada bolani tabiatni sevishga, uni e’zozlash ruhida tarbiyalash kelajakda bolada xushfe’llilik, bag’rikenglik, go’zallikni his qila bilish, borini avaylashga-yo’g’iga chidashga, sabr-toqat, muomilalilik hislatlarini shakllanishiga turtki bo’ladi. Uyida gultuvakdagi gulga kerakli vaqtda suv quyib, uni parvarishlagan o’g’il yoki qiz hech qachon tashqarida o’sib turgan daraxt shoxini sindirmaydi, qafasdagi qushchaga yoki akvariumdagi baliqqa ma’liyo bo’lgan, unga oziqa beradigan bolakay, ertaga daraxtda o’tirgan qushga tosh otishi qiyin. SHu o’rinda xalqimizning ardoqli yozuvchisi O’tkir Hoshimovning: **“Kichikligida chumchuqqa tosh otgan bola katta bo’lganida odamga o’q otshii mumkin. Beshavqatlik bilan jinoyatning orasi bar qadam”**- degan bitiklarini eslash kifoya.

Ekologik tafakkurning oliy bosqichi ekologik madaniyatdir. Atrof muhit bilan aloqador barcha an’ana va ko’nikmalar majmuasi ekologik madaniyatni bildiradi. Insoniyat ortida qanchalik boy madaniy meros bo’lmasin, har bir inson o’z madaniyati va ma’naviyatini o’zi har safar yangidan yaratadi, boshqa birovning madaniyatini o’ziga to’liq singdirib olish mumkin emas. Madaniylik irsiy mexanizmlar tizimi orqali paydo bo’lmaydi, faqat o’qish va o’qitishi orqali shakllanadi. Oila, maktab, o’rta maxsus va oliy o’quv yurti, ishxonahabiiy insondan ijtimoiy, madaniy inson yaratish uchun xizmat qiladi. Demak, tabiat bilan insonning hamkorligidagi o’zaro aloqadorligi nafaqat moddiy, balki ma’naviy jihatdan ham beqiyos qimmatga egadir. Ma’naviyat va ekologiya bir- birini inkor etmagan holda uyg’un, o’zaro ta’sir doirasida rivojlanib boradi. Asrlar mobaynida tabiatga, yerga, suvga bo’lgan munosabat ma’naviy-ekologik qadriyatlarda o’z aksini topgan va ekologik madaniyatning poydevori hisoblanadi. Bir so’z bilan aytganda, xalqimiz turmush tarzida “ekologiyani ma’naviyatdan aslo ajratib bo’lmagan”. Boshqacha aytganda, ma’naviyat yuksak bo’lgan joyda ekologiya va tabiiy muhitga e’tibor yuqori bo’lgan,

Garchi “ekologiya” tushunchasi XIX asrda fanga kiritilgan bo’lsada ekologik qarashlar tarixini odamzod paydo bo’lgan ilk ijtimoiy davrdan boshlagan ma’qul. Shu ma’noda, barcha xalqlar qatori, o’zbek xalqi ham juda boy milliy ekologik qadriyatlarga ega. Ularni uch qismga bo’lish mumkin:

- sof milliy ekologik qadriyatlar;

- islomiy ekologik qadriyatlar;
- umuminsoniy ekologik qadriyatlar.

Mana shular bugungi o'zbek milliy ekologik qarashlarining uch manbai va uch tarkibiy qismini tashkil etadi.

Sof milliy ekologik qadriyatlarga xalqimizning eng qadimgi zamonlardan hozirgacha yaratgan ekologiyaga oid og'zaki yoki yozma, ilmiy yoki badiiy shaklda ifodalangan qarashlari, fikr-mulohazalari, o'gitlari (masalan, “suvga tupurma”, “yerni urma”, “hayvonlarga ozor berma” va x.,k.), pand-nasihatlari, tasviriy san'at asarlaridagi ekologik targ'ibotga xizmat qiladigan talqinlarning barchasi kiradi.

Imom Buxoriy, Imom-at-Termiziy, Boxoviddin Naqshband, Hoji Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Bobur va boshqa ko'plab buyuk ajdodlarimiz milliy madaniyatimizni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shganlar, xalqimizning milliy iftixori bo'lib qolganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simliklar va hayvonot dunyosi, tabiatni e'zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar.

Tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyning guvohlik berishicha, Amir Temur “Obodonchilikka yaraydigan bir qarich yerning ham zoe bo'lishini ravo ko'rmasdi”. Uning “Qay bir joydan bir g'isht olsam, o'rniga o'n g'isht qo'ydim, bir daraxt kestirsam, o'rniga o'nta ko'chat ektirdim” degan so'zlari fikrimizning dalilidir.

Zahiriddin Muhammad Bobur sayyoh va tabiatshunos umuman serqirra ijodkor bo'lganligi hammamizga ma'lum. Undagi ekologik madaniyat va qadriyatlar shunchalik yuksak bo'lgan-ki, u o'lkani bilgan kishilarni hurmat qilgan, ularning qadriga etgan va ular bilan hamisha maslahatlashgan. “Biror safarga chiqishdan oldin yer, suv bilur kishilarni chorlab, atrof va tomonlar surishtirilar edi”-deb yozadi “Boburnoma” asarida. Bobur uzoq saylga chiqqanda uning chodiri tepasiga qush uya qo'ygan. Ketish chog'ida chodirni buzmay, qush palopon ochib, uchib ketishini poylash uchun chodirda bir lashkarni qoldirib ketganligi haqiqat. Mana Boburdagi ekologik madaniyat, mana buyuk kishining ekologik ma'naviyati.

Ekologik qadriyatlar ma'naviy qadriyatlar zamirida shakllanishiga shubha yo'q. Mustaqillik tufayli tiklangan bebaho qadriyatlar to'g'risida gapirar ekanmiz, o'zbek xalqi boy ma'naviy-ekologik merosga ega bo'lib, mana shu merosdan, o'z makonini, zaminini, yashash muhitini asrashga va muhofaza qilishga qaratilgan sa'yi-harakatlar, an'ana va urf-odatlar o'z aksini topgan hamda bu merosni saqlash, boyitish, yosh avlodlar tarbiyasiga singdirishga katta ahamiyat berilgan. Hozirda, avvalo ta'lim tizimida “Ekologiya” fanini o'qitishni qat'iy tarzda yo'lga qo'yish, o'qitilayotganini yanada takomillashtirish hamda ular mazmuniga yuqoridagi ekologik meros elementlarini singdirish davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shodimbetov Yu. “Ijtimoiy ekologiyaga kirish”. Toshkent, O’qituvchi 1994 y.
2. Tolipov O’Q., Usmonboyeva M. “Pedagogik texnologiyalarning tabiiy asoslari”. T.: Fan, 2006 y.
3. Tursunov X.T., Rahimova T.U. “Ekologiya”. Toshkent, 2006 y.
4. Qubonniyozov R.«Geografiya ta'limi metodikasi». Urganch, 2001 y.
5. G'ulomov P. “O'zbekiston tabiiy geografiyasi” 7-sinf darsligi T. “O'qituvchi” 2008 y